

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**MAXAMADTOIROVA ADIBA BOTIR QIZI**

**HOZIRGI XITOIY TILIDAGI QIYOSLASH KONSTRUKSIYALARIDA**  
**DARAJALANISH**

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2022**

UO‘K: 811.581+81’362  
KBK: 81.2-2 (Kit)  
M-42

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation on doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Maxamadtoirova Adiba Botir qizi**

Hozirgi xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarida darajalanish.....3

**Махамадтоирова Адипа Ботир кизи**

Градация сравнительных конструкций в современном китайском  
языке ..... 27

**Maxamadtoirova Adiba Botir qizi**

Grading in comparative constructions in Modern..... 52

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 57

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**MAXAMADTOIROVA ADIBA BOTIR QIZI**

**HOZIRGI XITOIY TILIDAGI QIYOSLASH KONSTRUKSIYALARIDA**  
**DARAJALANISH**

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2022**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Fil1290 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida ([www.tsuos.uz](http://www.tsuos.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nasirova Saodat Abdullayevna**

filologiya fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Safarov Shaxriyor Safarovich**

filologiya fanlari doktori, professor

**Kebaytuli Gulibanum**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2022-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent, Shahrisabz ko'chasi 16-uy. Tel.: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: [info@tsuos.uz](mailto:info@tsuos.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi 16-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2022-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2022-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.M. Mannonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi  
filol.f.d., professor

**R.A. Alimuxamedov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, filol.f.d., dotsent

**X.Z. Alimova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida qiyoslash inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladigan, insonning dunyoni bilish jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan, tashqi olamni idrok etishning keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ma'lumki, obyektiv borliqdagi narsa va hodisalar uzluksiz o'zgarishda va bu jarayon inson tafakkuri hamda tilida aks etadi. Obyektiv narsa va uning xususiyatlari asosida shakllanuvchi tushunchalar, bir tushunchalardan boshqalarining hosil qilinishi, ularning aynanlik, farqlilik, o'xshashligi asosida darajalanish hodisalarining asosini tashkil etadi.

Dunyo tilshunosligida til birliklarining shakliiy jihatlari tadqiqi bilan bir qatorda, mazmuniy xususiyatlari ham tadqiqotchilar e'tiborini tortib, lingvistikada aynanlik va farqlilik munosabatini ifodalovchi konstruksiyalarning qiyosiy tahlili bilan bog'liq qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Dunyo tillarining deyarli barchasida qiyoslash kategoriyasi mavjud, ammo ularning namoyon bo'lishi, shakllanish qonuniyatlari har bir tilda muayyan xususiy tomonlar bilan xarakterlanadi. Qiyoslash turli fanlar: matematika, mantiq, psixologiya, falsafa, tilshunoslik fanlarining universal tushunchasi bo'lib, bu hodisani o'rganayotgan har bir fan o'zi uchun muhim jihatiga e'tibor qaratadi, bu esa qiyoslashning ko'p qirrali ekanligini isbotlaydi. Shu nuqtayi nazardan qiyoslashni dunyo tillari misolida tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning muhim masalalaridan biridir.

Bugungi kunda O'zbekiston va Xitoy davlatlari o'rtasida har tomonlama munosabatlar rivojlanib bormoqda. Jumladan, ilm-fan sohasida ham aloqalar kuchaymoqda. «O'zbekiston Xitoyi qadimiy tarix va noyob madaniyat, ulkan salohiyatga ega, jahon iqtisodiyotining yetakchilaridan bo'lgan va o'z maqsadlari yo'lida qat'iy borayotgan mamlakat sifatida biladi»<sup>1</sup>. Aytish joizki, ikki davlatning o'zaro iqtisodiy rivojlanishida til ko'prik vazifasini o'tab kelmoqda. Shu sababli ikki va ko'p tomonlama siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi malakali mutaxassislarini tayyorlash, jahonda ro'y berayotgan jarayonlarni to'g'ri va teran tahlil qila oladigan kadrlarga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash, sharq tillari bo'yicha, xususan, xitoyshunoslik sohasida sinxron-tarjimonlarni tayyorlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Mazkur dissertatsiya mavzusi ma'lum ma'noda yuqoridagi vazifalar yechimiga xizmat qiladi. Zero, o'zbek tilshunosligida xitoy tili bo'yicha muayyan ilmiy ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, hozirgi xitoy tilidagi qiyoslash mazmunli sodda gaplarda darajalanish hodisasi konstruksiyalar tarkibida aks etishi monografik yo'sinda o'rganilmagan. Ushbu tilda qiyoslash konstruksiyalarida darajalanish hodisasining ifodalanishiga doir fundamental tadqiqotlarning yo'qligi tilshunoslikda qiyoslash konstruksiyalarini monografik aspektida o'rganish va ushbu qiyoslash modellarida darajalanish munosabatining ifodalanishini tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Bu borada mazkur tadqiqot ishi xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarida darajalanish munosabatining ifodalanishini yanada chuqur bilishga ko'mak beradi.

---

<sup>1</sup> Mirziyoev Sh.M. 2017-yil 11-mayda XXRga o'tkazilgan davlat tashrifi doirasida Xitoy Raisi Si Dzinpin bilan uchrashuvda so'zlangan nutq // O'zbekiston-Xitoy: strategik sheriklik va do'stlik munosabatlarini yanada rivojlantirish yo'lida: www.uza.uz. 12-05-2017.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2020-yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni, 2020-yil 16-apreldagi "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4680-son Qarori, 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son Qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Qiyoslash va darajalanish hodisasining turli jihatlarini dunyo tilshunos olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, rus tilshunosligida M.I. Cheremisina, V.M. Ogolsev, V.P. Berkov, V. Kuperman, K.P. Xerberman, I.V. Levit, G.Y. Dzyubko, A.V. Tregubchak, M.S. Ivashova, G.L. Denisova, L.M. Malix<sup>2</sup> kabi tilshunoslar tomonidan qiyoslash kategoriyasining o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan salmoqli ishlar bajarilgan bo'lsa-da, qiyoslash konstruksiyalarida darajalanish masalasi tahlilga tortilmagan. Shuningdek, S.M. Kolesnikova, E.I. Sheygal, M.B. Bondarenko, B.A. Bulgarova, P.P. Berezniskaya, A.V. Sherbakov, N.V. Rogojina, I.A. Isayeva, O.M. Kuznesova<sup>3</sup> kabilar darajalanish

<sup>2</sup> Черемисина М.И. Сложные сравнительные конструкции русского языка: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Новосибирск, 1973. – 382 с.; Огольцев В.М. Устойчивые сравнения в системе русской фразеологии. – Л.: Либроком, 1978. – 159 с.; Берков В.П. Семантика сравнения и типы её выражения / Теория функциональной грамматики: Качественность. – СПб.: Наука, 1996. – 263 с.; Лернер К., Куперман В. Категория «сравнения и оценки» с точки зрения гипотезы о «типах языкового движения» // Вопросы языкознания. №1. – М., 1998. – С.89-96.; Херberman К.П. Компаративные конструкции в сравнении. К вопросу об отношении грамматики к этимологии и языковой типологии // Вопросы языкознания. №2. – М., 1999. – 207 с.; Левит И.В. Сложные сравнительные синтаксические конструкции как элемент функционально семантического поля сравнения: Дисс. ...канд. филол. наук. – СПб., 2005. – 166 с.; Дзюбко Г.Ю. Формирование образности речи учащихся при изучении сравнения на уроках русского языка: Дисс. ...канд. пед. наук. – Рязань, 2006. – 166 с.; Трегубчак А.В. Семантика сравнения и способы ее выражения: Дисс. ...канд. филол. наук. – Рязань, 2008. – 221 с.; Ивашова М.С. Структурно-семантические особенности сравнительных конструкций во французском и русском языках в их сопоставлении (на материале художественных переводов): Дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2009. – 252 с.; Денисова Г.Л. Когнитивный механизм сравнения в немецком языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Самара, 2009. – 34 с.; Малых Л.М. Статус категории сравнения в современных лингвистических исследованиях (Актуальные вопросы грамматики): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2011. – 36 с.

<sup>3</sup> Колесникова С.М. Градационные отношения в современном русском языке: Дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 1999. – 425 с.; Шейгал Е.И. Градация в лексической семантике. – Куйбышев, 1990. – 196 с.; Бондаренко М.Б. Градуальность как свойство лексики и основание для построения лексической парадигмы: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Воронеж, 2000. – 21 с.; Булгарова Б.А. Градуальная организация текстового семантического поля «смех» (на материале произведений М.А.Булгакова): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2001. – 23 с.; Березницкая П.П. Типология и структура градуальных полей в русском языке: Дисс. ...канд. пед. наук. – Краснодар, 2004. – 166 с.; Щербаков А.В. Градация как стилистическое явление современного русского литературного языка: Дисс. ...канд. филол. наук. – Красноярск, 2004. – 229 с.; Рогожина Н.В. Показатели градуальности как, какой в структуре простого предложения: Дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2005. – 236 с.; Исаева И.А. Градуальная семантика глагола в современном русском языке: Дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2008. – 202 с.; Кузнецова О.М. Функционально-

hodisasini o'rganishga katta hissa qo'shganlar. Lekin tadqiqotlarda darajalanish matndagi gaplarning ma'no va mazmuni, ahamiyati, ta'sirchanligini gradual o'sishini ta'minlovchi stilistik vosita sifatida ta'riflagan.

Tilda darajalanish tushunchasi endi paydo bo'ldi, deyilsa xato bo'ladi. Avvaldan borliqdagi narsa-hodisalarning muayyan belgilari bir-biriga nisbatan darajalanish xususiyatiga ega bo'lganligi insonlar tomonidan anglanishi tufayli lug'aviy birliklarning ham o'zaro ma'noviy munosabatlarga ko'ra muayyan darajalanish qatorlarini hosil etishi tilshunoslikda ma'lum bo'lgan. Masalan, Alisher Navoiyning "Muhokamatul-lug'atayn" asarida yig'lamoq fe'lining turli darajasini ko'rsatib berilgan: yig'lamoq, yig'lamsiramoq, ingramoq, singramak, o'kirmak, ingichkirmak, siqtamak, hoy-hoy yig'lamak<sup>4</sup>.

Darajalanish tushunchasi o'zbek tilshunosligida dastlab H. Ne'matov tomonidan o'rganilgan bo'lib, unga quyidagicha ta'rif beradi: "Bu tizim qurilishi faqat qarama-qarshi tomonlardangina iborat bo'lib qolmay, farqlanuvchi tomonlarni birlashtiruvchi oraliq birliklar, oraliq uchinchilarga ham bog'liqdir"<sup>5</sup>. Keyinchalik darajalanish O. Bozorov, A. Abdullayev, Sh. Orifjonova, O. Mamaziyayev, L. Xudoyberdiyeva, A. Ziyayev, L. Elmurodova, A. Ziyayev, J. Jumaboyeva, G'. Rahmonov, N. Abdullayevlarga<sup>6</sup> tomonidan tahlilga tortilgan. Ammo ushbu ishlarda qiyoslash konstruksiyalarida darajalanish hodisasining namoyon bo'lishi masalasi tadqiq manbayi bo'lmagan. M. Mukarramov, Z. Mamajanov, F. Usmanov, A. Axmedova<sup>7</sup> o'xshatish mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Xitoy tilshunosligida qiyoslash konstruksiyalarini to'plash va ularning o'ziga xos xususiyatlari salmoqli ishlarda o'rganilgan. Xususan, Lyu Yue-xua (刘月化 *Liú Yuèhuā*), Djang Shasha (张莎莎 *Zhāng Shāshā*), Djang Lin Dzie (张琳捷 *Zhāng Línjié*), Li Dzing (李晶 *Lǐ Jīng*), Li Lin Dzya (李林珈 *Lǐ Lín Jiā*), Lyu Sya (刘夏 *Liú Xià*), Ni Shuguang (倪曙光 *Ní Shǔguāng*), Djang Lilan (张丽蓝 *Zhāng Lílán*), Day

---

семантическое поле градации в современном русском языке: синтаксический аспект: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2010. – 176 с.

<sup>4</sup> Алишер Навоий. Муҳокаматул-луғатайн. В.Раҳмонов таҳрири остида. – Тошкент: Тафаккур, 2014. – Б.87.

<sup>5</sup> Нейматов Х. Включённое третье в морфологической системе тюркских языков (к постановке вопроса) // Советская тюркология. М., 1976. – С.31.

<sup>6</sup> Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 272 б.; Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлиқни ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1997. – 87 б.; Орифжонов Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. – Бухоро, 1996. – 114 б.; Мамазияев О. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация: Филол. фан. номз. ... дисс. – Фарғона, 2004. – 132 б.; Худойбердиева Л. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг даражаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2003. – 178 б.; Зияев А. Инглиз тилида сўз маъноларини кучайтиришнинг лингвокогнитив аспекти: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 151 б.; Элмуродова Л. Ўзбек тилида даража функционал-семантик майдони (белги даража микромайдони): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011 – 171 б.; Зияев А. Тилда интенсификация/деинтенсификация семантикасининг лисоний бирлик ва шакл парадигмаларини ҳосил қилиши: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2020. – 266 б.; Джумабаева Ж. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 38 б.; Раҳмонов Ф. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати: Филол. фан. б. фалс. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2019. – 156 б.; Абдуллаева Н. Инглиз ва ўзбек халқ мақолларидаги градуонимик муносабатларнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2019. – 150 б.

<sup>7</sup> Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – 88 б.; Мамажонов З. Ўхшатиш асосидаги шеърый санъатларнинг назарий таснифи: Филол. фан. б. фалс. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2017. – 152 б.; Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри. ... дисс. – Андижон, 2020. – 173 б.; Аҳмедова А. Параллел корпусда ўхшатишларнинг лексик-семантик муносабатлари тадқиқи (инглизча-ўзбекча ва ўзбекча-инглизча параллел матнлар асосида): Филол. фан. б. фалс. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 58 б.

Syue Mey (戴雪梅 *Dài Xuěméi*) va Djang Ruo Ying (张若莹 *Zhāng Ruòyíng*)<sup>8</sup> kabi tilshunoslar qiyoslash kategoriyasiga yangicha qarashlar asosida yondashgan bo'lsa ham, shu vaqtga qadar monografik yo'sinda tadqiq etilmagan. Shuningdek, qiyoslash konstruksiyalarining grammatik xususiyatlari, ushbu konstruksiyalarning yasalishidagi o'ziga xosliklar yoritib berilgan, ularning semantik va tuzilishiga ko'ra tasnifi amalga oshirilgan, biroq qiyoslash konstruksiyalarida darajalanish hodisasi tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining "Xorijiy Sharq mamlakatlari tillarini o'rganish va tilshunoslikning nazariy masalalari", shuningdek, Xitoy filologiyasi kafedrasining "Xitoy tili, xitoy xalq madaniyati, urf-odatlar va sharq tillarini o'qitish uslublari" ilmiy tadqiqot rejalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** hozirgi xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarida darajalanish hodisasining namoyon bo'lishini struktur, funksional va semantik jihatdan ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tilshunoslikda qiyoslashning ahamiyati va rolini asoslagan holda darajalanish hodisasiga oid yondashuvlarni yoritish;

xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarining tarkibi va ko'lamini aniqlagan holda ularni belgi 征候 *zhēnghòu*, xususiyat 特性 *tèxìng*, jarayon 过程 *guòchéng*, harakat 行动 *xíngdòng* yoki holat 情况 *qíngkuàng* orqali ifodalanishiga ko'ra modellarini ajratish;

uzluksiz vaqt davomidagi va jarayon vaqtidagi darajalanishni ifodalovchi qiyoslash konstruksiyalarining antiteza 对照 *duìzhào*, farqlash 区分 *qūfēn* va o'xshatish 类似 *lèisì* orqali amalga oshishiga ko'ra semantik guruhlarini aniqlash va tahlil etish;

darajalanish munosabatini aks ettiruvchi qiyoslash konstruksiyalarini mohiyatiga ko'ra (klimaks 高潮 *gāocháo*, antiklimaks 反高潮 *fǎn gāocháo*); ifoda usuliga ko'ra ( mantiqiy 合逻辑的 *luójí de*, miqdoriy 数量的 *shùliàng de*, emotsional 感情的 *gǎnqíng de*); baholash nuqtayi nazariga ko'ra (obyektiv 客观的 *kèguān de* va subyektiv 主观的 *zhǔguān de*) struktur, funksional va semantik jihatdan tasnif qilish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida hozirgi xitoy tilida qiyoslash konstruksiyalari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** hozirgi xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarida darajalanish hodisasining ifodalanishi tashkil qiladi.

<sup>8</sup> 刘月化等著. 实用现代汉语语法. – 北京: 商务印书馆, 2001 年. – 1005 页.; 刘月化等著. 实用现代汉语语法. – 北京: 商务印书馆, 2001 年. – 1005 页.; 张莎莎. 汉语“比”字比较句语法和语义研究. 湖南大学, 2007. – 97 页.; 张琳捷. “越来越”与“越发”, “一天比一天”的比较研究. 上海交通大学, 2012 年. – 165 页.; 李晶. A study on Semantic Features of “越... 越...” Comparative Structure. 四川外国语大学, 2014 年. – 175 页.; 李林珈. 汉语“有/没有”试比较句的逻辑语义分析. 四川师范大学, 2015 年. – 193 页.; 刘夏. “不比”和“没有”两种比较句的语用分析及对外汉语教学. 南昌大学, 2017 年. – 194 页.; 倪曙光. “更”, “还”, “再”在比较句中的句法, 语义, 语用研究. 南京大学, 2017 年. – 151 页.; 张丽蓝. 汉语比较句中观点要素倾向性识别方法的研究. 上海交通大学, 2017 年. – 174 页.; 戴雪梅, 张若莹. 实用汉语语法三百点. 北京: 新世界出版社出版, 1999 年. – 205 页.



**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada to'plangan materiallarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, analiz, sintez, tavsiflash, sistem-struktur, interpretatsiya, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarida darajalanish hodisasi ifoda mazmunidan kelib chiqib struktur, semantik hamda funksional yondashuvlarda tahlil qilinishi natijasida qiyoslash va o'xshatish konstruksiyalarini farqlashga doir sintaktik va semantik ko'rsatmalar ishlab chiqilgan;

xitoy tilida qiyoslash mazmunli gaplarning belgi, xususiyat, jarayon, harakat yoki holatni ifodalashiga ko'ra darajalanishning uzluksiz vaqt davomidagi va jarayon vaqtidagi konstruksiyalarda namoyon bo'lishi isbotlangan;

xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarida darajalanish hodisasi mohiyatiga ko'ra (klimaks 高潮 *gāocháo*, antiklimaks 反高潮 *fǎn gāocháo*); ifoda usuliga ko'ra ( mantiqiy 合逻辑的 *luójí de*, miqdoriy 数量的 *shùliàng de*, emotsional 感情的 *gǎnqíng de*); baholash nuqtayi nazaridan (obyektiv 客观的 *kèguān de*, subyektiv 主观的 *zhǔguān de*) darajalanishi ochib berilgan;

grammatikaga oid asl manbalarda qayd etilgan 16 ta konstruksiyadan tashqari xitoy tilida yana 2 ta: (越 *yuè* (是 *shì*) ...越发 *yuèfā*...) hamda (愈 *yù*...愈 *yù*...) qiyoslash konstruksiyasi ham mavjud ekanligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

qiyoslash mazmunli grammatik konstruksiyalarga doir yangi ma'lumotlar aniqlangan, mavjud 16 ta va yangi aniqlangan 2 ta grammatik konstruksiyani farqlashga doir aniq ko'rsatmalar ishlab chiqilgan;

xitoy tili qiyoslash konstruksiyalarida darajalanish hodisasi tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosalar oliy o'quv yurtlari uchun yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarining xitoy tilida qiyoslash konstruksiyalariga bag'ishlangan bo'limlarini muhim ilmiy ma'lumotlar bilan to'ldirgan;

darajalanishga oid materiallar va qiyoslash mazmunli konstruksiyalar tahlillari o'zbek xitoyshunosligini amaliy jihatdan boyitishga xizmat qilishi asoslangan;

hozirgi xitoy tilidagi qiyoslash mazmunli grammatik konstruksiyalarning shakllanishida darajalanishning ahamiyati dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ishda fundamental ilmiy va metodologik maxsus adabiyotlarga tayanilganligi, tadqiqot usullarining til materiali, tadqiqot yo'nalishi va ilmiy izlanish mohiyatidan kelib chiqqan holda tanlanganligi, ilmiy-tadqiqot natijalarining dissertatsiya nazariy konsepsiyasiga mos kelganligi, xulosa hamda tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan ilmiy qarashlar xitoy tili grammatikasi bo'yicha nazariy adabiyotlarni yaratishda, darslik hamda qo'llanmalarni takomillashtirishda, maxsus kurslar uchun qo'shimcha materiallar berishda foydalanilishi, xitoy tilshunosligi, qiyosiy-chog'ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik yo'nalishlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishda nazariy manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati shundaki, undan “Asosiy o‘rganilayotgan til (xitoy tili)”, “Qo‘shimcha sharq tili (xitoy tili)”, “Xitoy tili nazariy grammatikasi”, “Mutaxassislikning nazariy masalalari” kabi o‘quv fanlaridan ma’ruza matnlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda hamda sharqshunos-filologlar uchun maxsus kurslar tayyorlashda, o‘zbek va xitoy xalqlari o‘rtasida ijtimoiy-madaniy sohalaridagi aloqalarning rivojlanishiga hissa qo‘shishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarida darajalanish hodisasining ifodalanishini o‘rganish yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarida darajalanish hodisasi namoyon bo‘lishi-ning struktur, funksional va semantik jihatlari bilan bog‘liq fikr-mulohaza, xulosalardan “Filologiya va tillarni o‘qitish (xitoy tili)”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti (xitoy tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun tayyorlangan “Xitoy tili” (boshlang‘ich kurs, II jild) darsligini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-son buyrug‘i, 356-093 raqamli guvohnoma). Ilmiy natijalar tatbiqi darslikni xitoy tili semantikasi va grammatikasiga doir yangi muhim ilmiy ma’lumotlar bilan boyishini ta’minlagan;

grammatikaga oid manbalarda qayd etilgan 16 ta konstruksiyadan tashqari xitoy tilida yana 2 ta: (越 *yuè* (是 *shì*) ...越发 *yuèfā* ...) hamda (愈 *yù*...愈 *yù*...) qiyoslash konstruksiyasi ham mavjud ekanligi haqidagi tahliliy fikr va nazariy xulosalardan O‘zbek-Xitoy Konfutsiy institutining ilmiy yo‘nalishlarida, xitoy tili darslari jarayonlarida keng foydalanilgan (O‘zbek-Xitoy Konfutsiy institutining 2021-yil 10-yanvardagi 3-son ma’lumotnomasi). Olingan natijalar xitoy tilida qiyoslash mazmunli konstruksiyalarni to‘g‘ri tarjima qilish orqali ushbu konstruksiyalardan foydalanish usullarini o‘quvchilarga oson yetkazish, qolaversa, xitoy tilida qiyoslash konstruksiyalarini yasash yo‘llarini tushuntirishda xizmat qilgan;

xitoy tilidagi qiyoslash mazmunli gaplarda darajalanishning uzluksiz vaqt davomidagi va jarayon vaqtidagi konstruksiyalarda namoyon bo‘lishi haqidagi tahliliy fikr va nazariy xulosalardan «O‘zbekiston» teleradiokanali DUK “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Adabiy jarayon”, “Millat va ma’naviyat” eshittirishi ssenariylarini tayyorlashda manba sifatida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «O‘zbekiston» teleradiokanali DUKning 2021-yil 9-apreldagi 01-40-21-son ma’lumotnomasi). Olingan natijalar tatbiqi ko‘rsatuv va eshittirishning ilmiy dalillarga boy va ommabop bo‘lishini ta’minlagan. Natijada ushbu teleko‘rsatuv uchun tayyorlangan materiallar mazmuni yanada mukammallashgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (4 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 135 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qiyoslash mazmunli konstruksiyalar tadqiqining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tilshunoslikda qiyoslash masalasining o'rganilishi, rus, o'zbek, xitoy tillaridagi grammatik xususiyatlari va qiyoslash konstruksiyalarining shakliy va mazmuniy tuzilishi tahlilga tortilib, darajalanish tushunchasi ilmiy asoslangan.

Darajalanish termini asosida lisoniy birliklarining tildagi muayyan bir belgisi oshib-kamayib borishiga ko'ra zidlanishi tushuniladi. Tilda darajalanish tushunchasi endi paydo bo'ldi, deyilsa xato bo'ladi. Masalan, Alisher Navoiyning *“Muhokamatul-lug'atayn”*<sup>9</sup> asarida *yig'lamoq* fe'lining turli darajasini ko'rsatib berilgan:

*yig'lamoq*

—————|—————→  
*inchkirmak – ingramoq – singramak – yig'lamsinmak – siqtamak – o'kurmak – hoy-hoy yig'lamak*

Ushbu darajalanish qatorida *yig'lash* holati belgisi *inchkirmak*, ya'ni iztirob chekib juda past ovoz chiqarib, ich-ichidan *yig'lamoq* fe'lidan *hoy-hoy yig'lamak*, ya'ni baland ovoz bilan oshkora *yig'lamoq* fe'ligacha kuchayib borishini ko'rish mumkin. Alisher Navoiyning yana boshqa asarlaridan ham ma'noviy darajalanishga ega so'zlarning bir g'azal yoki bir ruboiy, hattoki bir bayt yoki misrada qo'llanilgan holatlarini ko'p uchratish mumkin. Mazkur holatlar shoirning darajalanuvchi leksemalardan mohirona foydalangan holda badiiy san'at yarata olganligini isbotlaydi.

Jahon tilshunosligida olimlar tomonidan shu paytgacha darajalanish paradigmasiga oid turli lingvistik hodisalar va tushunchalar o'rganilgan. Rus tilshunosligida ham darajalanish hodisasini o'rganish vaqt o'tishi bilan tobora rivojlangan.

Daniyalik tilshunos O. Yespersen tushunchalar orasida oraliq holatlar ham mavjud bo'la olishi va ular leksik birliklar orqali ifodalanishini aytadi: *doim – ba'zan – hech qachon, ko'p – bir qancha – oz*<sup>10</sup>. Oradan bir necha yillar o'tib, shunday fikr S.D. Kasnelson tadqiqotida bir rangdan ikkinchi rangga o'tish jarayonida oraliq holatlar mavjudligi, ular ham tilda so'zlar orqali ifodalanishi keltiriladi: *qizg'ish-qizil* kabi. Uning fikricha, lug'aviy sinonimik qatorlar belgi darajalanishi farqlariga ham ega bo'lishi mumkin: *iliq, issiq, qaynoq*<sup>11</sup>. Y.S. Stepanov esa rus tilidagi semiz-

<sup>9</sup> Навоий Алишер. Муҳокаматул-луғатайн. В.Раҳмонов таҳрири остида. – Тошкент: Тафаккур, 2014. – Б.87.

<sup>10</sup> Есперсен О. Философия грамматики. – М.: Издательство иностранной литературы, 1958. – 329 с.

<sup>11</sup> Кацнельсон С.Д. Содержание слова, значение и обозначение. – М.: Наука, 1965. – С.81.

ozg'inlik belgisini ifodalovchi quyidagi so'zlarning lug'aviy darajalanishini ko'rsatuvchi qatorni belgilab bergan:

*истоцённый – тощий – худой – нормальный – упитанный – полный*  
-7 -6 -5 -4 -3 -2 -1 0 1 2 3 4 5 6 7

Mazkur darajalanish qatorida chap yoki o'ng tomon yo'nalishlari bo'ylab yonma-yon joylashgan ikki so'z o'zaro sinonimik munosabatlarni, 0 nuqtaning chap va o'ng tomonlaridagi qarama-qarshi o'zaro mutanosib joylashgan so'zlar antonimik munosabatlarni vujudga keltirishini bildiradi va uning ayni fikrlari keyinchalik darajalanishning sinonimiya va antonimiya bilan bevosita munosabatini chuqur o'rganishga asos bo'ldi<sup>12</sup>.

I.R. Galperin o'zining "Stylistics" kitobida darajalanish (gradatsiya)ning klimaks turi mavjudligini va u stilistik vosita sifatida matn mazmuni, ahamiyati, matn ta'sirchanligining gradual o'sishini ta'kidlaydi<sup>13</sup>. Keyinchalik E.I. Shendels<sup>14</sup> va boshqa tilshunoslar: S.M. Kolesnikova, P.P. Berezniskaya, A.V. Sherbakov, N.V. Rogojina, I.A. Isayeva, O.M. Kuznesova, E.I. Sheygal, M.B. Bondarenko<sup>15</sup> bu mavzu yuzasidan samarali ishlar olib borganlar. Ular darajalanishni, asosan, stilistik xususiyatidan kelib chiqib tadqiq qilganlar va bu ishlar keyingi tadqiqotlarga asos bo'lib xizmat qilgan.

Darajalanish I.R. Galperin va yuqorida keltirilgan tilshunoslarning ishlarida stilistik vosita sifatida o'rganilgan bo'lsa, xuddi shu termin olmon tilshunosi Shteybe<sup>16</sup> tomonidan grammatikaning sintaktik sathi misolida tahlil qilingan. Shuningdek, yana bir olmon tilshunosi M. Biyervishning "The Semantics of Gradation" asarida sifat darajalariga nisbatan qo'llangan. Mazkur kitobda nemis va ingliz tillaridagi sifatlarning grammatik shakllari bo'lgan qiyosiy (比较的 *bǐjiào de* - comparative), tenglashtiruvchi (等价的 *děng jià de* - equative) va orttirma (最高级的 *zuì gāo jí de* - superlative) darajalari hamda ravishning ba'zi turlaridagi shu kabi darajalarning o'ziga xos semantik va sintaktik xususiyatlari batafsil tahlil qilingan<sup>17</sup>.

Tilshunoslikda darajalanish terminiga o'xshash bir necha atamalar borki, ularni ham mazkur tushu-ncha bilan bir xil talqin etilishi ba'zan uchrab turadi. O'zbek tilshunosligida hozir "darajalanish", "gradatsiya" "graduonimiya" atamaları deyarli sinonimlar sifatida qo'llanmoqda. Shuningdek, umumiy tilshunoslikda *gradatsiya* 渐进 *jiànjìn* deb nomlanuvchi terminning o'zbek tilshunosligidagi muqobili

<sup>12</sup> Степанов Ю.С. Основы общего языкознания. Учебное пособие. – М.: Просвещение, 1975. – С.38.

<sup>13</sup> Гальперин И.Р. Stylistics. – М.: Высшая школа, 1977. – С.219-221.

<sup>14</sup> Шендельс Е.И. Градация грамматичности // Иностранные языки в школе. – 1970. №1. – С.12-19.

<sup>15</sup> Колесникова С.М. Градационные отношения в современном русском языке: Дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 1999. – 425 с.; Березницкая П.П. Типология и структура градуальных полей в русском языке: Дисс. ... канд. пед. наук. – Краснодар, 2004. – 166 с.; Щербakov А.В. Градация как стилистическое явление современного русского литературного языка: Дисс. ... канд. филол. наук. – Красноярск, 2004. – 229 с.; Рогожина Н.В. Показатели градуальности как, какой в структуре простого предложения: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2005. – 236 с.; Исаева И.А. Градуальная семантика глагола в современном русском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2008. – 202 с.; Кузнецова О.М. Функционально-семантическое поле градации в современном русском языке: синтаксический аспект: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2010. – 176 с.; Шейгал Е.И. Градация в лексической семантике. – Куйбышев, 1990. – 196 с.; Бондаренко М.Б. Градуальность как свойство лексики и основание для построения лексической парадигмы: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2000. – 21 с.

<sup>16</sup> Steube A. Graddation der Grammatikalitat. In "problem der strukturellen Grammatik und Semantik. – Leipzig, 1968. – 211 p.

<sup>17</sup> Bierwisch M. The Semantics of Gradation. – Berlin: Springer-Verlag, 1989. – P. 72-75.

*darajalanish* bo‘lganligi uchun tadqiqotimizda bu ikki termin ostida bir xil mazmundagi tushunchani nazarda tutganmiz.

O‘zbek tilshunosligida darajalanish hodisasiga ilk bor H. Ne‘matov quyidagicha ta’rif bergan: “Bu tizim qurilishi faqat qarama-qarshi tomonlardangina iborat bo‘lib qolmay, farqlanuvchi tomonlarni birlashtiruvchi oraliq birliklar, oraliq uchinchilarga ham bog‘liqdir”<sup>18</sup>. Keyinchalik “O‘zbek tili stilistikasi”<sup>19</sup> kitobida stilistik figura sifatida talqin qilingan. Shuningdek, so‘zlararo ma’noviy munosabatlarning bir ko‘rinishi holatida qo‘llangan hamda ushbu hodisaga lug‘aviy darajalanish sifatida qaralib, bu hodisada muayyan belgi-xususiyatning turli darajalarga ajralishi aytib o‘tilgan<sup>20</sup>.

XX asrning 90-yillari o‘rtalariga kelib, O. Bozorov o‘zining “O‘zbek tilida darajalanish”<sup>21</sup> nomli doktorlik dissertatsiyasida o‘zbek tilshunosligida darajalanish muammosiga monografik planda yondashdi hamda bu hodisani fonetik, leksik, grammatik sath doirasida tadqiq qildi. Bu ish darajalanish hodisasini tilning barcha sathlarida mavjudligini ochib bergan ilk tadqiqot sifatida e’tiborga loyiq.

L. Ermurodova o‘z tadqiqotida o‘zbek tilida daraja tushunchasini maydon sifatida o‘rganadi. Ishda daraja funksional-semantik maydoni tarkibini aniqlash, bu maydonni ifodalovchi vositalar tarkibi haqida fikr yuritiladi<sup>22</sup>. Mazkur ishda darajalanish hodisasi maydon sifatida o‘rganilganligiga qaramay, undagi ayni hodisa faqat sifat turkumiga xos grammatik kategoriyaliligicha qolgan. Chunki undagi belgi darajasini ifodalovchi vositalar grammatik yo‘l bilan yasalgan holda sifatlariga birikib kelgan. L. Xudoyberdiyeva o‘zbek tilida nominativ birliklarning darajalanishi bo‘yicha izlanish olib borgan<sup>23</sup>. J. Jumaboyeva “O‘zbek va ingliz tillarida leksik hamda stilistik graduonomiya” nomli tadqiqotida graduonimiyaning semantik-struktur va uslubiy xususiyatlarini ochib beradi. Unda o‘zbek va ingliz tillarida leksik graduonimik qatorlar hosil bo‘lishi, bu gradual birliklarning semantik va konseptual xususiyatlari, stilistik graduonimiyaning tabiatini ochib berish, gradatsiyani yondosh hodisalardan farqlash, har ikki tilga xos unikal gradatsiya qatorlarini aniqlash kabi masalalar atroflicha tadqiq etilgan<sup>24</sup>. Lekin ushbu ishlarda darajalanish lisoniy birliklar belgilarining grammatik yo‘l bilan emas, balki leksik va semantik xususiyatlari orqali o‘zaro farqlanishi tadqiq qilingan. G‘.Rahmonov tadqiqotida gradual sinonimiya masalasi, sinonimiya va graduonimiyaning bir-biridan farqlari tahlil qilingan va sinonimiyada graduonimiyaning namoyon bo‘lishi yoritib berilgan<sup>25</sup>. Shuningdek, Sh. Orifjonova, A. Abdullayev, O. Mamaziyayev, A. Ziyayev,

<sup>18</sup> Неъматов Х. Включённое третье в морфологической системе тюркских языков (к постановке вопроса) // Советская тюркология. – М., 1976. – С.31.

<sup>19</sup> Шомаксудов И. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б.162.

<sup>20</sup> Бегматов Э., Неъматов Х., Расулов Р. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси (Систем лексикология тезислари) // Ўзбек тили ва адабиёти. 1989, №6. – Б.35-40.

<sup>21</sup> Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 1997. – Б.172.

<sup>22</sup> Элмуродова Л. Ўзбек тилида даража функционал-семантик майдони (белги даража микромайдони): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011 – Б.7.

<sup>23</sup> Худойбердиева Л. Ўзбек тилида номинатив birliklarning даражаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2003. – Б.9.

<sup>24</sup> Джумабаева Ж. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 38 б.

<sup>25</sup> Раҳмонов Ғ. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати: Филол. фан. б. фалс. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2019. – Б.99.

N. Abdullayeva<sup>26</sup> ham darajalanish borasida tadqiqot olib borganlar, lekin ularda qiyoslash konstruksiyalarida darajalanish hodisasining namoyon bo'lishi tadqiq obyekti bo'lmagan.

Rus tilshunosligida ham qiyoslash kategoriyasini o'rganish vaqt o'tishi bilan rivojlanib borgan. M.I. Cheremisina, V.M. Ogoltsev, V.P. Berkov, V. Kuperman, K.P. Xerberman, I.V. Levit, G.Y. Dzyubko, M.S. Ivashova, A.V. Tregubchak, G.L. Denisova, L.M. Malix<sup>27</sup> kabilar bu mavzuni o'rganishga katta hissa qo'shganlar. Mazkur tadqiqotlarda qiyoslash ifoda darajasidan qat'i nazar, doimo sintaktik sathda amalga oshishi, qiyoslashda har qanday murakkab gapni tuzish uchun ma'lum umumiy sxema mavjud ekanligi ilgari surilgan.

M.I. Cheremisina: "Qiyosiy tizimlar uchun quyidagi: [A[(B)β]S] umumiy model mavjud. Bunda A – qiyos subyekting ramzi, B – qiyos etaloni ramzi, β – qiyosning shakliy ko'rsatkichi, S – qiyos asosining ramzi"<sup>28</sup>, deb tushuntiradi. Qiyosiy tizim to'rt a'zoga ega bo'ladi, ya'ni: 1) taqqoslanayotgan narsa yoki subyekt; 2) unga qiyos bo'luvchi narsa yoki obyekt; 3) qiyos belgisi; 4) shakliy ko'rsatkich<sup>29</sup>. Qiyoslash mazmunli gaplarda qiyos subyekti ham, qiyos etaloni ham doim bir turga oid predmet, voqea va jarayonlardan iborat bo'ladi, ya'ni shaxs – shaxs, jonli mavjudot, qattiq jism – qattiq jism, suyuqlik – suyuqlik, joy – joy vashu kabilar. Mazkur sintaktik qurilish ayni talabga javob bersagina, gapda qiyoslash munosabati ifodalanadi.

G'. Abdurahmonov qiyoslash masalasiga oid quyidagi fikrni keltiradi: "Qiyoslash mazmunli gaplar asosida ikki qismga bo'lingan markaz mavjud. Mana shu har ikki qism bir-biriga qiyoslanadi. Qiyoslash asosida mana shu ikki markazning bir-biriga zid yoki muvofiq ekanligini ko'rsatish yotadi. Ma'lum voqea, hodisa, belgi-xususiyatlarni bir-biriga qiyoslashdan maqsad ular orasidagi farqni aniqlash yoki ularni zid qo'yish, bir-biriga muvofiq yoki nomuvofiq ekanini ko'rsatishdir"<sup>30</sup>.

<sup>26</sup> Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. – Бухоро, 1996. – 114 б.; Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликни ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1997. – 87 б.; Мамазияев О. Ўзбек поэтик нуткида хиазм ва грация: Филол. фан. номз. ... дисс. – Фарғона, 2004. – 132 б.; Зияев А. Инглиз тилида сўз маъноларини кучайтиришнинг лингвокогнитив аспекти: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 151 б.; Зияев А. Тилда интенсификация/деинтенсификация семантикасининг лисоний бирлик ва шакл парадигмаларини ҳосил қилиши: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2020. – 266 б.; Абдуллаева Н. Инглиз ва ўзбек халқ мақолларидаги градуонимик муносабатларнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2019. – 150 б.

<sup>27</sup> Черемисина М.И. Сложные сравнительные конструкции русского языка: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Новосибирск, 1973. – 382 с.; Огольцев В.М. Устойчивые сравнения в системе русской фразеологии. – Л.: Либроком, 1978. – 159 с.; Берков В.П. Семантика сравнения и типы её выражения / Теория функциональной грамматики: Качественность. – СПб.: Наука, 1996. – 263 с.; Лернер К., Куперман В. Категория «сравнения и оценки» с точки зрения гипотезы о «типах языкового движения» // Вопросы языкознания. №1. – М., 1998. – С.89-96.; Херberman К.П. Компаративные конструкции в сравнении. К вопросу об отношении грамматики к этимологии и языковой типологии / Вопросы языкознания. №2. – М., 1999. – 207 с.; Левит И.В. Сложные сравнительные синтаксические конструкции как элемент функционально семантического поля сравнения: Дисс. ...канд. филол. наук. – СПб., 2005. – 166 с.; Дзюбо Г.Ю. Формирование образности речи учащихся при изучении сравнения на уроках русского языка: Дисс. ...канд. пед. наук. – Рязань, 2006. – 166 с.; Ивашова М.С. Структурно-семантические особенности сравнительных конструкций во французском и русском языках в их сопоставлении (на материале художественных переводов): Дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2009. – 252 с.; Трегубчак А.В. Семантика сравнения и способы ее выражения: Дисс. ...канд. филол. наук. – Рязань, 2008. – 221 с.; Малых Л.М. Статус категории сравнения в современных лингвистических исследованиях (Актуальные вопросы грамматики): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2011. – 36 с.

<sup>28</sup> Черемисина М.И. Сложные сравнительные конструкции русского языка: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Новосибирск, 1973. – С. 89.

<sup>29</sup> Невелева С.Л. Вопросы поэтики древнеиндийского эпоса. – М.: Наука, 1997. – С.42.

<sup>30</sup> Абдурахмонов Г. Ўзбек тили грамматикаси II. Синтаксис. – Тошкент: Фан, 1976. – Б.33.

Taqqoslanayotgan hukmlarning tarkibi odatdagi hukmlardan farq qiladi. Ularda fikrning tugalligi faqat hukmning ikki bosh bo‘lagiga bog‘liq emas, balki taqqosning ikkinchi obyektini sifatidagi uchinchi bo‘lakka ham bog‘liq. Shu bilan birga, taqqoslanayotgan predmetlarning har ikkalasi ham ayni bir belgi, xususiyatga ega. Bu belgi qiyoslanayotgan predmetlarga aynan bir xil darajada emas, balki turli darajada tegishli bo‘ladi va shu farqiga ko‘ra bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi hamda ular orasidagi tafovut ko‘rsatiladi. Bunday qiyoslanuvchi hukmlarning o‘ziga xosligi uning anchayin murakkabligini ko‘rsatadi.

Xitoy tilshunosligida shu vaqtgacha darajalanish hodisasi yuzasidan tadqiqot bajarilmagan bo‘lsa ham, biz qiyoslash konstruksiyalarida ushbu hodisaning namoyon bo‘lishini kuzatdik va tadqiqot ishida buni tahlil qilib chiqdik.

Xitoy tilshunosligida qiyoslash mavzusi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarga nazar tashlansa, “xitoy tilida qiyoslashni faqat grammatik konstruksiyalar orqali tahlil etish maqsadga muvofiq”<sup>31</sup> degan fikr ilgari surilgani ma’lum bo‘ladi. Mazkur mavzusi yuzasidan Lyu Yue-xua (刘月化 *Liú Yuèhuā*), Djang Shasha (张莎莎 *Zhāng Shāshā*), Djang Lin Dzie (张琳捷 *Zhāng Linjié*), Li Dzing (李晶 *Lǐ Jīng*), Li Lin Dzya (李林珈 *Lǐ Lín Jiā*), Lyu Sya (刘夏 *Liú Xià*), Ni Shuguang (倪曙光 *Ní Shǔguāng*), Djang Lilan (张丽蓝 *Zhāng Lìlán*), Day Syue Mey (戴雪梅 *Dài Xuěméi*) va Djang Ruo Ying (张若莹 *Zhāng Ruòyíng*)<sup>32</sup> kabi tilshunoslar samarali tadqiqot olib borganlar.

Ushbu tadqiqotlarda xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarining grammatik xususiyatlari, bunday konstruksiyalarning yasallishidagi o‘ziga xosliklar yoritilgan, ular semantik va tuzilishiga ko‘ra tasniflangan. Ammo qiyoslash konstruksiyalari monografik yo‘sinda tadqiq etilmagan.

Ushbu modeldan [A[β(B)]S] xitoy tilidagi qiyosiy tizimlar uchun foydalanishimiz mumkin: “甜瓜比蜜甜 *tiánguā bǐ mì tián* – qovun asaldan shirin”. Bunda qovun 甜瓜 *tiánguā* – A qiyos subyektining ramzi; asal 蜜 *mì* – B qiyos etaloni ramzi; -day, -dan 比 *bǐ* (跟 *gēn* ... 一样 *yīyàng*) – β qiyosning shakli ko‘rsatkichi; shirin 甜 *tián* – S qiyos asosining ramzi. Har qanday qiyoslash mohiyat e’tibori bilan bir xil emas: “甜瓜跟蜜一样甜 *tiánguā gēn mì yīyàng tián* – qovun asaldan shirin” qiyosiy konstruksiyasida o‘xshashlik asosidagi qiyoslash mavjud, “甜瓜比蜜甜 *tiánguā bǐ mì tián* – qovun asaldan shirin” qiyosiy konstruksiyasida esa farqlash asosidagi qiyoslash mavjud.

Xitoy tilidagi qiyoslash mazmunli konstruksiyalarni ifoda mazmuniga ko‘ra quyidagicha tasnif qilish mumkin (1.1-jadvalga qarang).

<sup>31</sup> 张丽蓝. 汉语比较句中观点要素倾向性识别方法的研究. 上海交通大学, 2017 年. – 页 74.

<sup>32</sup> 刘月化等著. 实用现代汉语语法. – 北京: 商务印书馆, 2001 年. – 1005 页.; 刘月化等著. 实用现代汉语语法. – 北京: 商务印书馆, 2001 年. – 1005 页.; 张莎莎. 汉语“比”字比较句语法和语义研究. 湖南大学, 2007. – 97 页.; 张琳捷. “越来越”与“越发”; “一天比一天”的比较研究. 上海交通大学, 2012 年. – 165 页.; 李晶. A study on Semantic Features of “越... 越...” Comparative Structure. 四川外国语大学. 2014 年. – 175 页.; 李林珈. 汉语“有/没有”试比较句的逻辑语义分析. 四川师范大学, 2015 年. – 193 页.; 刘夏. “不比”和“没有”两种比较句的语用分析及对外汉语教学. 南昌大学, 2017 年. – 194 页.; 倪曙光. “更”, “还”, “再”在比较句中的句法, 语义, 语用研究. 南京大学, 2017 年. – 151 页.; 张丽蓝. 汉语比较句中观点要素倾向性识别方法的研究. 上海交通大学, 2017 年. – 174 页.; 戴雪梅, 张若莹. 实用汉语语法三百点. 北京: 新世界出版社出版, 1999 年. – 205 页.

### 1.1-jadval

#### Xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarining ifoda mazmuniga ko'ra tasnifi

| Darajaning ortiq yoki kamligini ifodalovchi konstruksiyalar | Darajaning teng yoki notengligini ifodalovchi konstruksiyalar | Darajaning bosqichma-bosqich o'zgarishini ifodalovchi konstruksiyalar |
|-------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|
| [A 比 B+...]                                                 | [A 跟 B....一样]                                                 | [...越来越+X]                                                            |
| [A 不如 B +...]                                               | [A 跟 B....相同]                                                 | [...越发+X]                                                             |
| [A 不必 B +...]                                               | [A 跟 B....相似]                                                 | [...一天比一天+X]                                                          |
|                                                             | [A 跟 B....近似]                                                 |                                                                       |
|                                                             | [A 跟 B....类似]                                                 |                                                                       |
|                                                             | [A 有 B (那么这么)+X]                                              |                                                                       |
|                                                             | [...就是不一样]                                                    |                                                                       |
|                                                             | [...(和)...完全两样]                                               |                                                                       |
| Yuqoridagi konstruksiyalarning inkor shakli:                |                                                               |                                                                       |
| [A 没有 B +X]                                                 | [A 没有 B (那么这么) +X]                                            |                                                                       |
|                                                             | [A(不)跟 B .... 不一样]                                            |                                                                       |

Ushbu konstruksiyalar shakliy tuzilishiga ko'ra ham guruhlariga bo'linadi.

### 1.2-jadval

#### Tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab komponentli konstruksiyalar

| Bir komponentli sodda konstruksiyalar | Ikki va undan ortiq komponentli murakkab konstruksiyalar |
|---------------------------------------|----------------------------------------------------------|
| [A 比 B+X]                             | [A 跟 B....一样]                                            |
| [...愈....+X]                          | [A 跟 B....相同]                                            |
| [A 有 B +X]                            | [A 跟 B....相似]                                            |
| [A 不如 B +X]                           | [A 跟 B....近似]                                            |
| [A 不必 B +X]                           | [A 跟 B....类似]                                            |
| [...越发+X]                             | [A 没有 B (那么这么)+X]                                        |
| [A 没有 B +X]                           | [...就是不一样]                                               |
|                                       | [...(和)...完全两样]                                          |
|                                       | [A 没有 B (那么这么)+X]                                        |
|                                       | [A 跟 B .... 不一样/A 不跟 B ....一样]                           |

| Takror orqali ifodalanadigan murakkab konstruksiyalar |
|-------------------------------------------------------|
| [...一 hisob so'z 比 一 hisob so'z +X]                   |
| [...+越...越.....]                                      |
| [...(越(是)...越发...)]                                   |
| [...+愈...愈...]                                        |




Dissertatsiyaning “**Qiyoslash konstruksiyalarida uzluksiz vaqt davomidagi darajalanishning ifodalanishi**” deb nomlangan ikkinchi bobida xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarida klimaks va antiklimaks darajalanish, shuningdek, uzluksiz vaqt davomidagi darajalanishning qiyoslash konstruksiyalarida ma’no va ifoda usuliga ko’ra aks etishi ochib berilgan.

Tilshunoslikda boshqa fanlardagi kabi bir-biriga zid ma’no yoki mazmun, hattoki fikr ifodalovchi tushunchalar mavjud. Bunday muqobil tushunchalar ifoda materialining ko’lami va ifoda usuliga ko’ra o’zaro qarama-qarshi ma’no, mazmun va fikrni yuzaga chiqaradi. “Til birliklari o’rtasidagi tadrijiy darajalanishni matematik tarzda manfiy va musbat qutblarga ajratishimiz mumkin”<sup>33</sup>: Buni quyidagi chizma asosida yanada batafsil izohlaymiz:

## 2.1-chizma

### Til birliklari o’rtasidagi tadrijiy darajalanish




Keltirilgan 2.1-chizma asosida quyidagi misollarni tahlil qilib chiqamiz: 1) 朋友跑得快 *péngyǒu pǎo dé kuài* – do’stim tez yuguradi; 2) 妹妹跑得比我快 *mèimei pǎo dé bǐ wǒ kuài* – singlim sekin yuguradi. Ushbu misoldagi 快 *kuài* tez – musbat tarafdin, 慢 *màn* sekin – manfiy tarafdin joy olsa, 0 esa o’rtacha tezlikda yurishga to’g’ri keladi. Endi u qanchalik tez yoki sekinligiga qarab musbat yoki manfiy tarafdagi raqamlar tomon siljiydi. Bu yerda to’g’ridan-to’g’ri darajalanishni kuzatiladi. Tadqiqotimizda esa me’yor hisoblangan 0 ga nisbatan emas, balki taqqoslanayotgan obyektning natijasiga qarab darajalandi. Masalan: 妹妹跑得比我快 *mèimei pǎo dé bǐ wǒ kuài* – singlim mendan tez yuguradi. Ushbu misolda singlimning yugurishi me’yor hisoblangan yurishga nisbatan emas, balki “men”i yugurishimga nisbatan darajalanadi.

“Modomiki, ikki til birligi o’zaro qarama-qarshi yo’nalish kasb etgan ekan, ular o’rtasida ham, albatta, o’z mustaqil yo’nalishiga ega birliklar bo’lishi tabiiy. Bu birliklarning yo’nalishlari tadrijiy ravishda bir tarafdin ikkinchi tarafga qarab og’ib boradi. Oraliq, mo’tadil nuqta (nol)dan o’tadi va tugal bir qarama-qarshilik kasb etadi”<sup>34</sup>.

## 2.2-chizma

### Til birliklarining tadrijiy ravishda bir tarafdin ikkinchi tarafga yo’nalishi



Shunday qilib, darajalanishda jumladagi bir tushuncha ikkinchi tushunchadan darajaning ortiq yoki kamligiga ko’ra farq qiladi va me’yor hisoblangan

<sup>33</sup> Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 1997. – Б.189.

<sup>34</sup> Кўрсатилган асар. – В. 193.

tushunchadan darajaning ortishi yoki kamayishiga ko'ra ikki turi farqlanadi: 1) klimaks (ko'tarilish) 高潮 *gāocháo*; 2) antiklimaks (pasayish) 反高潮 *fǎn gāocháo*. Darajalanishning bu ikki ko'rinishini quyidagi misollar orqali ko'rib chiqamiz:

1. 你的弟弟比我的弟弟淘气 *nǐ de dìdì bǐ wǒ de dìdì táoqì* – sening ukang mening ukamga nisbatan sho'x;


2. 那位老中医比我们有经验得多, 而且下药十分谨慎 *nàwèi lǎozhōngyī bǐ wǒmen yǒu jīngyàn déduō, érqiě xiàyào shífēn jǐnshèn* – anavi katta tabib bizga qaraganda tajribali bo'lsa-da, dori tayinlashda juda ehtiyotkor.

Yuqorida keltirilgan birinchi misolda antiklimaks darajalanish ifodalanib, fe'l-atvorning sho'x, to'polonchi, shumtaka bo'lishi bosiq, yuvosh, og'ir fe'l-atvorga nisbatan darajalanish shkalasining chap tomonida joylashadi va me'yor "mening ukam"ga nisbatan olingan va darajalanishning antiklimaks turi namoyon bo'lgan. Ikkinchi misolda ham tabibning "biz"ga nisbatan tajribasi ko'pligi orqali darajalanishning klimaks turi ifodalangan.

Darajalanish hodisasida til birliklarining o'zaro aloqalaridan tashkil topgan to'rt qutbdan birida ma'no, tushuncha yoki fikr o'zgarib boradi. Bu holatni yanada aniq ifodalashda quyidagi 2.3-chizmadan foydalanildi.:

### 2.3-chizma

#### Darajalanish hodisasini yuzaga chiqaruvchi qutblari



Ushbu 2.3-chizmada X o'qining musbat tomoni klimaks darajalanishni, manfiy tomoni esa antiklimaks darajalanishni yuzaga chiqaruvchi qutb hisoblanadi. Vertikal chiziq, ya'ni Y o'qining yuqori qismi tasdiq ma'noli darajalanish hodisasini keltirib chiqaruvchi qutb deb baholansa, pastki qismi inkor ma'no yoki mazmunli gradatsiya hodisasini yuzaga chiqaruvchi qutb sifatida izohlanadi. Buni quyidagi misollar asosida tahlil qilib chiqamiz:

1. 现在交通越来越方便, 运费也越来越便宜了 *xiànzài jiāotōng yuè lái yuè fāngbiàn, yùnfèi yě yuè lái yuè piányile* – hozir transport borgan sari qulaylashib, yo'l haqi ham tobora arzonlashmoqda;

2. 声音变得越来越大, 越来越近 *shēngyīn biàn dé yuè lái yuè dà, yuè lái yuè jìn* – ovoz borgan sari balandlashib, tobora yaqinlashmoqda;

3. 我的体重比上个月减轻了, 而且减轻了很多 *wǒde tǐzhòng bǐ shàng gèyuè jiǎnqīng le, érqǐě jiǎnqīng le hěnduō* – mening vaznim o'tgan oyga qaraganda kamayibdi, ancha-muncha ozibman;

4. 进入冬季, 温度越来越低 *jìnrù dōngjì, wēndù yuè lái yuè dī* – qish fasli kirib, havo harorati borgan sari pasaymoqda. Birinchi misolda yo'l haqining qulaylashib borayotgani, ikkinchi misolda ovozning balandlashib borayotganida klimaks darajalanish, uchinchi misolda vaznning kamayishi, to'rtinchi misolda havo haroratining pasayishi orqali antiklimaks darajalanish avvalgi holatiga qiyoslash orqali namoyon bo'lgan.

Komponentlarning tashkil etuvchi ma'no, tushuncha yoki fikrlar darajasini baholash nuqtayi nazaridan yondashilganda, darajalanish hodisasini ikkiga ajratish mumkin: a) obyektiv darajalanish 客观的 *kèguān de*; b) subyektiv darajalanish 主观的 *zhǔguān de* (渐进 *jiànjìn*). Agar darajalanishning tarkibiy qismlari o'z ma'no va mazmunlari darajasidan kelib chiqsa, bu obyektiv darajalanish deb baholanadi. Bunda u voqea-hodisaning tadrijiy rivojini tasvirlaydi va o'z ma'no-mohiyatiga mos obyektiv bir qatorda joylashadi: 天气预报说, 雨下得越来越大 *tiānqì yùbào shuō, yǔ xià dé yuè lái yuè dà* – ob-havo ma'lumotiga ko'ra, yomg'ir yog'ishi borgan sari tezlashadi. Ushbu misolda yomg'ir yog'ishining tobora tezlashishi o'z ma'no va mazmuni darajasidan kelib chiqib, so'zlovchining bu tushunchaga bergan nisbiy bahosi orqali ifodalanmagan.

Subyektiv darajalanishda esa uning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi til birliklarining darajaviy tengsizligi haqida yaqqol his qilinadigan umumiy tasavvurlar bo'lmaydi, balki bu tengsizlikni ayni tushuncha yoki fikrlar o'rtasidagi nisbiy bahosi deyish mumkin. Bunda so'zlovchi obyektiv darajalanishga nisbatan ko'proq erkinlikka ega. Chunki har bir tarkibiy qismda aks etgan ma'no yoki mazmun darajasini baholashning aniq bir o'lchovi, mezoni yo'q. Masalan: 我觉得医生越老越有经验 *wǒ juéde yīshēng yuè lǎo yuè yǒu jīngyàn* – mening fikrimcha, doktor qancha keksa bo'lsa, tajribasi shuncha ko'p bo'ladi. Bu yerda so'zlovchining tushuncha yoki fikr haqidagi subyektiv bahosidan kelib chiqilgan. Negaki doktorning keksaligiga ko'ra tajribali deb hisoblash, bu nisbiy baholashdir.

Darajalanish hodisasi ifoda usuliga ko'ra uch guruhga ajraladi. Ya'ni bir matnda ma'no yoki mazmunning darajama-daraja o'sib yoki pasayib borishi quyidagi uch usul bilan ifodalanishi mumkin: 1) mantiqiy (logik) usul 合逻辑的 *luójí de*; 2) emotsional usul 感情的 *gǎnqíng de*; 3) miqdoriy (kvantitativ) usul 数量的 *shùliàng de*. Ushbu tasnifdan kelib chiqib, darajalanish hodisasini ifoda usuliga ko'ra, uch guruhga bo'lib o'rganish ma'qul: 1) mantiqiy darajalanish 逻辑渐进 *luójí jiànjìn*; 2) miqdoriy darajalanish 数量渐进 *shùliàng jiànjìn*; 3) emotsional darajalanish 感情渐进 *gǎnqíng jiànjìn*. Bunda darajalanish ham obyektiv, ham subyektiv yondashuvni taqozo qiladi.

Mantiqiy darajalanish tarkibiy qismlar o'rtasida ularning o'zlari aks ettirgan tushuncha va fikrlar nuqtayi nazaridan qaraganda ko'rinuvchi nisbiy ahamiyat orqali yuzaga chiqariladi. Masalan: 1. 人老了, 记性越来越差了 *rén lǎole, jìxìng yuè lái yuè chà*

*yuè chāle – inson qariganda xotirasi tobora yomonlashadi. 2. 老虎的爪子比耗子大*  
*láo hǔ de zhuǎ zi bǐ hào zi dà – yo ‘lbarsning panjalari kalamushnikidan katta.*

Emotsional darajalanish his-tuyg‘uning kuchayib yoki pasayib borishida yuzaga chiqadi. Ya’ni qiyoslanayotgan me’yorga nisbatan his-tuyg‘u bildiruvchi tushunchalarning ko‘tarilishi yoki kamayishi orqali emotsional darajalanish namoyon bo‘ladi. Masalan: 1. 她穿上这件衣服, 越发楚楚动人了 *tā chuān shàng zhè jiàn yīfú, yuèfā chǔchǔ dònggrénle – u bu libosni kiyib, yanada maftunkor bo‘lib qoldi.* 2. 我的爸爸越来越冷静 *wǒ de bàba yuè lái yuè lěngjìng – otam borgan sari bosiqlashmoqda.*

Darajalanishning uchinchi turi miqdoriy darajalanish hisoblanadi. Bunda ifodalanayotgan tushunchaning hajmi, miqdorining yaqqol o‘sib yoki kamayib borishi kuzatiladi. Bunday gaplarda biror gap bo‘lagi vazifasidagi sonlar yoki miqdor ravishlarida belgi tadrijiy ravishda oshib yoki kamayib boradi. Masalan: 往后的日子比这好一百倍 *wǎnghòu de rìzi bǐ zhè hǎo yī bǎibèi – o‘tgan kunlar hozirgiga qaraganda yuz barobar yaxshi edi.* 2) 今年这个村粮食亩产比几年前增加了二百多公斤 *jīnnián zhège cūn liángshí mǔchǎn bǐ jǐ niánqián zēngjiāle èrbǎi duō gōngjīn – bu yil bu qishloqning g‘alla yetishtiradigan maydoni o‘tgan yiliga qaraganda 300 gektarga ko‘paydi.*

Xitoy tilida uzluksiz vaqt davomidagi darajalanishni ifodalovchi konstruksiyalar guruhiga quyidagilarni kiritamiz: 越来越 *yuè lái yuè*, 越发 *yuèfā*, 一天比一天 *yītiān bǐ yītiān* – qiyoslash ma’nosini ifodalovchi, darajaning asta-sekinlik bilan o‘zgarib borishini ifodalovchi uch sinonim konstruksiya hisoblanadi. 一天比一天 *yītiān bǐ yītiān*+X – vaqt o‘lchovida asta-sekin o‘zgarib turadigan doimiy nuqta, 越来越 *yuè lái yuè*+X konstruksiyasi – vaqt o‘lchovida cho‘zilgan dioganal chiziq, 越发 *yuèfā*+X – vaqt o‘lchovining ikki nuqtasi, deb ta’rif beriladi<sup>35</sup>. Ya’ni 一天比一天 *yītiān bǐ yītiān* konstruksiyasi biror holat yoki darajaning avvalgisiga qaraganda yana bir pog‘ona asta-sekinlik bilan o‘zgarayotganini bildiradi. 越来越 *yuè lái yuè* konstruksiyasi esa biror holatning avvalgisiga nisbatan darajasining ko‘tarilgani yoki pasayganini ifodalaydi. Qiyos 越发 *yuèfā* orqali ifodalanganda, hozirgi vaqt o‘tmish bilan qiyoslanadi va uning avvalgi vaqtga nisbatan o‘zgarganini bildiradi.

越来越 *yuè lái yuè* gapda oddiy fe‘ldan oldin qo‘llanmaydi. 越来越 *yuè lái yuè*dan keyin 很 *hěn*, 非常 *fēicháng*, 比较 *bǐjiào* kabi daraja ravishlarini ham qo‘llab bo‘lmaydi. 一 *yī*+hisob so‘z+比 *bǐ*+son 一 *yī*+hisob so‘z konstruksiyasi gapda hol vazifasida kelib, egadan oldin qo‘llanmaydi.

Shu bilan birga, [越发 *yuèfā* +...] ifoda usuliga ko‘ra [越 *yuè* ...越 *yuè*...] konstruksiyasining sinonimidir. Ushbu konstruksiyaning yana bir sinonim shakli: [越 *yuè* (是 *shì*)...越发 *yuèfā*...] bo‘lib, u [越 *yuè*...越 *yuè*...] konstruksiyasining sinonimi hisoblanadi. Uning yana [愈 *yù*...愈 *yù*...] tarzidagi, asosan, yozma nutqda qo‘llanadigan shakli ham bor. [越 *yuè*...越 *yuè*...] asosan, og‘zaki nutqda, [越 *yuè*


<sup>35</sup>张琳捷. “越来越”与“越发”, “一天比一天”的比较研究. 上海交通大学: 2012. – 65 页.

(是 *shì*) ...越发 *yuèfā*...] asosan, badiiy adabiyotda, grammatikaga oid ilmiy manbalarda uchratishimiz mumkin bo‘lgan konstruksiyalardir.

Dissertatsiyaning “Xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarida jarayon vaqtidagi darajalanishning namoyon bo‘lishi” deb nomlangan uchinchi bobida xitoy tilida qiyoslash konstruksiyalarida darajalanish hodisasi darajaning ortiq yoki kamligi va darajaning tengligiga ko‘ra tasnif qilinib, ushbu konstruksiyalarning semantik tahlili berilgan.

Til birliklari o‘rtasidagi tadrijiy darajalash matematik tarzda manfiy va musbat qutblarga ajraladi va o‘zaro qarama-qarshi yo‘nalish kasb etgan til birliklari o‘rtasida o‘z mustaqil yo‘nalishiga ega bo‘lgan birliklar tadrijiy ravishda bir tarafdin ikkinchi tarafga qarab og‘ib boradi hamda mo‘tadil nuqta, noldan o‘tib, tugal bir qarama-qarshilik kasb etadi. Unga quyidagicha misol keltiramiz: 熊猫比狗大, 大熊猫比熊猫更大, 大熊猫比狗最大 *xióngmāo bǐ gǒu dà, dàxióng bǐ xióngmāo gèng dà, dàxióng bǐ gǒu zuì dà* – panda kuchukdan katta, fil pandadan kattaroq, fil kuchukdan juda ham katta.

### 3.1-chizma



Bu yerda darajalanish kuchuk, panda va filning kattaligi 0 dan musbat qutbga qarab yo‘nalishi orqali ifodalanmoqda. Qiyoslash konstruksiyalari orqali darajalanish namoyon bo‘lganda esa darajalanish hodisasi to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki muayyan boshqa hukmning ifodalanayotgan natijasiga nisbatan namoyon bo‘ladi. Masalan, yuqorida keltirilgan 狗 *gǒu* kuchuk kattaligi o‘rtacha kattalikda bo‘lib, 0 dan joy olgan, 熊猫 *xióngmāo* panda katta bo‘lib, 1 da joylashgan, 大熊猫 *dàxióng* ulkan 2 da joylashgan. Bu yerda darajalanish to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, me‘yoriy deb olingan kuchukning kattaligiga qiyoslash orqali amalga oshmoqda. Bunda darajalanish ma‘lum bir vaqt oralig‘ida emas, balki belgi, xususiyat, jarayon, harakat yoki holat orqali aynan o‘sha vaqtda namoyon bo‘lmoqda.

Demak, qiyoslash konstruksiyalari uzluksiz vaqt davomidagi darajalanish va jarayon vaqtidagi darajalanishni ifodalovchi konstruksiyalarga bo‘linadi. Jarayon vaqtidagi darajalanishning ifodalanishi ham ikki xil: birinchisi darajalardagi o‘zaro farqni, baland yoki pastlikni ifodalovchi guruh bo‘lib, bunga: 比 *bǐ*, 不比 *bùbǐ*, 不如 *bùrú*, 没有 *méiyǒu* ishtirokidagi konstruksiyalar; ikkinchisi darajalarning o‘zaro teng yoki teng emasligini ifodalovchi guruh bo‘lib, bunga: [跟 *gēn* ...不一样 *bù yíyang*], [跟 *gēn* ...相同 *xiāngtóng*], [跟 *gēn* ...相似 *xiāngsì*], [跟 *gēn* ...近似 *jìnsì*], [跟 *gēn* ...类似 *lèisì*], [跟 *gēn*.... 不一样 *bù yíyang*], [不跟 *bùgēn*....一样 *yíyang*], [(没 *méi*) 有 *yǒu*....(那么 *nàme* / 这么 *zhème*)...], [...(和 *hé*)...完全两样 *wánquán liǎngyàng*], [...就是不一样 *jiùshì bù yíyàng*], [A 跟 *gēn* B....差不多 *chàbuduo*] ishtirokidagi konstruksiyalar kiradi.

Darajaning teng yoki notengligini ifodalovchi qiyoslash konstruksiyalari ham farqlash yoki o‘xshatish orqali amalga oshishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi. Uni quyidagi 3.2-jadval orqali ko‘rib chiqamiz:

### 3.2-jadval

#### Xitoy tilidagi qiyoslash mazmunli konstruksiyalarning farqlash yoki o‘xshatish orqali amalga oshishiga ko‘ra tasnifi

| Farqlash orqali ifodalanuvchi konstruksiyalar | O‘xshatish orqali ifodalanuvchi konstruksiyalar |
|-----------------------------------------------|-------------------------------------------------|
| [A 跟 <i>gēn</i> B ... 一样]                     | [A(没)有 B (那么/这么)...]                            |
| [...就是不一样]                                    | [A 跟 B...相同]                                    |
| [...(和)...完全两样]                               | [A 跟 B...相似]                                    |
| [A 跟 B .... 不一样]                              | [A 跟 B...近似]                                    |
| [A 不跟 B .... 一样]                              | [A 跟 B...类似]                                    |
|                                               | [A 跟 B...差不多]                                   |

Ta’kidlash joizki, qiyoslash o‘xshatish orqali ham amalga oshadi. Ya’ni o‘xshatish bir predmetni boshqasiga ular o‘rtasidagi umumiy bo‘lgan xususiyat asosida qiyoslashdir. Bunda qiyoslanayotgan obyektga to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, o‘xshatish orqali qiyoslanadi. O‘xshatish asosida ham qiyoslash bo‘lganligi uchun qiyoslash formulasidan foydalaniladi: [A(βV)S]. “To‘liq o‘xshatishda to‘rt element: 1) o‘xshagan narsa, 2) o‘xshatilgan narsa, 3) o‘xshash sifat, 4) o‘xshatish qo‘shimchasi mavjud bo‘ladi”<sup>36</sup>. Ta’kidlash lozimki, o‘xshashlik har doim farqlilik tufayli mavjuddir.

Jarayon vaqtidagi darajalanishni ifodalovchi qiyoslash konstruksiyalarining semantik tahlilidan ayon bo‘ladiki, 比 *bǐ* old ko‘makchisi sifat va darajalarning o‘zaro farqini, baland yoki pastligini ifodalash uchun qo‘llanadi. Qiyos obyekti 比 *bǐ* old ko‘makchisi yordamida taqqoslanayotgan bo‘lsa, kesim taqqosning natijasini ifodalab keladi. Semantik jihatdan ega va kesimning orasidan hol joy olib, 比 *bi* old ko‘makchisi hol vazifasini bajaradi. [A (Ega) + 比 B (hol) + kesim]. Konstruksiyada kesim vazifasida sifat, fe’l, sifatli so‘z birikmasi, fe’lli so‘z birikmasi, ega-kesimli so‘z birikmasi ishlatilishi mumkin. Masalan: 他比他哥哥有眼光 *tā bǐ tā yōu yǎnguāng* – u akasiga qaraganda ziyrak. Bu yerda “u”ning ziyrakligi me’yoriy zehnlilik yoki zukkolikka nisbatan emas, balki akasining ziyrakligiga nisbatan qiyoslanib, bu orqali jarayon vaqtidagi darajalanish namoyon bo‘lgan. Shuningdek, ifoda usuliga ko‘ra mantiqiy, mohiyatiga ko‘ra klimaks, baholash nuqtayi nazaridan subyektiv darjalanish aks etgan. Yana bir misol: 妹妹比姐姐能吃苦 *mèimei bǐ jiějie néng chīkǔ* – singlisi opasiga qaraganda qiyinchilikka chidamli. Ushbu misolda ham singlisining chidamli ekanligi me’yor sabr-toqatli, chidamli, matonatli sifatiga nisbatan emas, opasiga ko‘ra darajalanish ifodalangan.

<sup>36</sup> Хомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – Б.263.

不比 *bùbǐ* tuzilish jihatidan qiyosiy gaplarning inkor shakli bo'lib, uni quyidagicha ifodalash mumkin: "Oldingisi keyingisiga teng emas ....", ya'ni "A B dek emas", "B A dek ... deyish mumkin emas", "keyingisi oldingisiga nisbatan ..." deb bo'lmaydi<sup>37</sup>. Masalan: 今天不比昨天冷 *jīntiān bùbǐ zuótiān lěng* – bugun kechagidan sovuq emas. Ushbu misolga ko'ra, kunning iliqqligi chizmada ko'rsatilgan me'yoriy 0 dan joy olsa, kunning sovuqligi 0 dan manfiy -3, -4 tomon siljiydi. Bugunning kechagidan sovuq emasligi esa musbat tomonga og'ib -2, -1 da voqelanmoqda. Bu yerda darajalanish kunning iliqqligi, ya'ni me'yoriy 0 ga nisbatan emas, balki kechagi kunning sovuqligiga nisbatan ko'tarilishi orqali ifodalangan.

不比 *bùbǐ* konstruksiyasini [A 没有 *méiyǒu* B] (A B dek emas) yoki [A 不如 *bùrú* B] (A B ga teng kelmaydi) shakllari bilan adashtirib yubormaslik zarur. Ularning tarjimasini turlicha ma'nolarni anglatadi. Masalan:

1. 这件衣服不比那件衣服长 *zhè jiàn yīfú bùbǐ nà jiàn yīfú zhǎng* – bu kiyimni unisidan uzun deb bo'lmaydi;

2. 这件衣服没有那件衣服长 *zhè jiàn yīfú méiyǒu nà jiàn yīfú zhǎng* – bu kiyim unisidek uzun emas;

3. 这件衣服不如那件衣服长 *zhè jiàn yīfú bùrú nà jiàn yīfú zhǎng* – bu kiyimning uzunligi unisidek emas.

不如 *bùrú* konstruksiyasi biron-bir shaxs yoki predmetning boshqa bir shaxs yoki predmetdan ustun emasligini ifodalab keladi: 坐火车不如坐飞机快 *zuò huǒ chē bùrú zuò fēi jī kuài* – poyezdda borish samolyotda borish kabi tez emas. Bu yerda samolyot tezligining poyezd tezligidan yuqori ekanligi orqali jarayon vaqtidagi darajalanish aks etgan.

Narsa, hodisa va holatlarning o'zaro bir xilligi, ya'ni tengligini ifodalovchi [A 跟 *gēn* B 一样 *yīyàng*] konstruksiyasi va uning inkor shakli: [A 跟 *gēn* B...不一样 *bù yīyàng*], [A 不跟 *bùgēn* B .... 一样 *yīyàng*] orqali ifodalanib, ushbu konstruksiyada 一样 *yīyàng* o'rniga, 相同 *xiāngtóng* /相似 *xiāngsì* /近似 *jìnsì* /类似 *lèisì* so'zlaridan ham foydalanish mumkin. Aytish joizki, old ko'makchi hisoblangan 跟 *gēn* so'zini 与 *yǔ*, 和 *hé*, 同 *tóng* kabi so'zlar bilan almashtirish mumkin, aynan shu xususiyat uning og'zaki nutqdagi qulayligini ta'minlaydi. Masalan: 这本书跟那本书一样厚, 大概都是四百多页 *zhèběn shū gēn nàběn shū yíyàng hòu, dàgài dōushì sībǎi duō xié* – bu kitob bilan anavi kitob bir xil qalinlikda, jami taxminan to'rt yuz betdan ko'proq. Ushbu misolda anavi kitobning qalinligi bu kitobga nisbatan qiyoslanib, ikki kitobning bir xil qalinlikda ekanligi orqali mohiyatiga ko'ra klimaks; baholash nuqtayi nazaridan obyektiv; ifoda usuliga ko'ra miqdoriy darajalanish ifodalangan.

Ma'lumki, 有 *yǒu* fe'li ikki shaxs yoki ikki xil harakatning xususiyatini, vaziyatini, miqdorini yoki darajasining o'xshash taraflarini taqqoslashda qo'llanadi. Xitoy tilida 有 *yǒu* orqali qiyoslash ifodalanganda, A B ning darajasiga yetganligi voqelanadi. 有 *yǒu* fe'lidan keyin, odatda, 这么 *zhème*, 这样 *zhèyàng*, 那么 *nàme*, 那

<sup>37</sup> Очиллов О.М. Хитой тилида қиёсий гапларнинг шакли ҳақида / Хитойшунослик факультетининг биринчи илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент, 2015. – Б.163-173.

样 *nà yàng* qo‘llanadi, lekin 一样 *yī yàng* ishlatilmaydi. 没有 *méi yǒu* orqali inkor ma‘nosi ifodalanganda, u ham 比 *bǐ* old ko‘makchisi ishtirokidagi qiyos konstruksiyasining inkor shakli, ham 有 *yǒu* ishtirokidagi qiyos konstruksiyasining inkor shakliga kirishi mumkin. Eng muhim jihat shundaki, xitoy tilida [A 比 *bǐ* B.....一样 *yī yàng*], [比 *bǐ* ... 不一样 *bù yī yàng*], [有 *yǒu*...一样 *yī yàng*] kabi modellar mavjud emas. 有 *yǒu* fe‘li ishtirokidagi konstruksiyaga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

1. 这座楼有那座楼那么高 *zhè zuò lóu yǒu nà zuò lóu nà me gāo* – bu bino anavi binodek baland;

2. 这家商店的东西没有那家的东西那么便宜 *zhè jiā shāng diàn de dōng xī méi yǒu nà jiā de dōng xī nà me biàn zhí* – bu do‘konning mahsuloti anavi do‘konning mahsulotichalik arzon emas.

Demak, o‘xshatish bir predmetni boshqasiga ular o‘rtasidagi umumiy bo‘lgan xususiyat asosida qiyoslashdir. Ya‘ni birinchi misolda klimaks darajalanish, ikkinchi misolda antiklimaks darajalanish namoyon bo‘lgan.

[跟 *gēn*....差不多 *chà buduo*] konstruksiyasi ifodalanayotgan darajalarning o‘zaro yaqinligini, lekin aynan bir xil emasligini bildiradi. (和 *hé*)...完全两样 *wán quán liǎng yàng* ikki shaxs, harakat-holat yoki predmetning bir-biriga o‘xshamasligini, batamom ikki xil, umuman boshqa-boshqa ekanligini, 就是不一样 *jiù shì bù yī yàng* esa ma‘lum shaxs yoki predmetlar o‘rtasida umuman o‘xshashlik yo‘qligini ifodalaydi.

Darajalanish hodisasida bir jumlada ikkita tushuncha mavjud bo‘ladi hamda bir tushuncha ikkinchi tushunchadan darajaning ortiq yoki kamligiga ko‘ra farq qiladi. Qiyoslash konstruksiyalari orqali darajalanish namoyon bo‘lganda me‘yor hisoblangan tushunchaga nisbatan emas, balki jumladagi muayyan boshqa hukmga nisbatan ifodalanadi. Shuningdek, o‘xshatish orqali ifodalanadigan qiyoslash konstruksiyalari ham mavjud va bunda belgi, xususiyat, harakat, jarayon yoki holat qiyoslanayotgan predmetlarga turli darajada emas, aynan bir xil darajada tegishli bo‘ladi.

## XULOSA

Hozirgi xitoy tilidagi qiyoslash mazmunli konstruksiyalarda darajalanish munosabatini tadqiq etish quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. Qiyoslashda ifodalanadigan fikr deyarli hamisha entimema shaklida bo‘ladi. Bunda bir hukm boshqa hukmga nisbatan, undan kelib chiqqan va unga bog‘liq holda ifodalanadi. Agar ikki a‘zoli hukmning tarkibi [S—R] bo‘lsa, taqqoslanuvchi hukmning tarkibi [S<sup>1</sup>—R—S<sup>2</sup>]dir. Bunday gaplarda qiyos subyekti ham, qiyos etaloni ham hamisha bir turga oid predmet, voqea va jarayonlardan iborat bo‘ladi, ammo bu belgi taqqoslanayotgan predmetlarga aynan bir xil darajada emas, balki turli darajada tegishlidir.

2. Xitoy tilda qiyoslash, asosan, to‘rt a‘zo: 1) taqqoslanayotgan narsa yoki subyekt; 2) unga qiyos bo‘luvchi narsa yoki obyekt; 3) qiyos belgisi; 4) shakliy ko‘rsatkichdan iborat bo‘ladi: [A[(β)B]S]. Bunda A – qiyos subyektining ramzi, β – qiyosning shakliy ko‘rsatkichi, B – qiyos etaloni ramzi, S – qiyos asosining ramzi.



3. Xitoy tilshunosligida qiyoslash konstruksiyalarining tadqiqi bo'yicha olib borilgan ishlar mazkur tilda qiyoslash muayyan sintaktik konstruksiyalar orqali amalga oshishi hamda ushbu konstruksiyalar ishtirokisiz qiyosiy gaplarni tuzish mumkin emasligini ko'rsatdi. Chunki qiyoslash uchun bitta so'z yoki shakliy ko'rsatkichning o'zi kamlik qiladi.

4. Me'yor hisoblangan tushunchadan bir ma'no (mazmun)ning ikkinchi ma'no (mazmun)ga nisbatan kuchayib yoki pasayib borishi, deb tavsiflangan darajalanish hodisasi fonetik, leksik va grammatik sathlarda kuzatiladi. Sintaktik sathdagi darajalanishda bir jumladagi ikkita tushuncha, ya'ni belgi-xususiyat, jarayon, harakat yoki holat mavjud bo'ladi hamda gap shunday tuziladiki, bir tushuncha ikkinchi tushunchadan darajaning ortiq yoki kamligiga ko'ra farq qiladi. Ya'ni ikki tushuncha gradual oppozitsiya orqali bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi.

5. Darajalanish ifodalayotgan ma'noning, ahamiyatlilik darajasining hamda ijobiy-salbiy bahoning kuchayib yoki pasayib borishini ta'minlaydi. Baholash nuqtayi nazaridan yondashilganda, u obyektiv 客观的 *kèguān de* va subyektiv 主观的 *zhǔguān de* darajalanishga; ifoda mazmuniga ko'ra esa mantiqiy 合逻辑的 *luóji de*, miqdoriy 数量的 *shùliàng de*, emotsional 感情的 *gǎnqíng de* (渐进 *jiànjìn*) darajalanishlarga bo'linadi. Shuningdek, darajalanish muayyan belgi 征候 *zhēnghòu*, xususiyat 特点 *tèdiǎn*, harakat 行动 *xíngdòng*, jarayon 过程 *guòchéng* yoki holatni 情况 *qíngkuàng* ifodalashiga ko'ra ham farqlanadi va bu orqali – klimaks 高潮 *gāocháo* va antiklimaks 反高潮 *fǎn gāocháo* turlari yuzaga chiqadi.

6. Qiyoslash mazmunli gaplarda hamisha murakkab mazmuniy munosabat ifodalanadi va ularda eng kami ikkita semantik propozitsiya bo'ladi. Bu ikki propozitsiya o'zaro *farqlash* 区分 *qūfēn* va o'xshatish 类似 *lèisì* vositasida bog'lanadi. O'xshatish bir predmetni boshqasiga ular o'rtasidagi umumiy xususiyat asosida qiyoslashdir. Umuman "B"ga o'xshatish orqali "A"ning noma'lum xususiyatlariga oydinlik kiritiladi. O'xshatish asosida ham qiyoslash bo'lganligi uchun qiyoslash formulasidan foydalaniladi:  $[A[\beta(B)]S]$ : 1) o'xshagan narsa; 2) o'xshatish qo'shimchasi; 3) o'xshatilgan narsa; 4) o'xshash sifat. O'xshashlik har doim farqlilik tufayli mavjud.

7. Xitoy tilidagi 16 ta qiyoslash konstruksiyasi ifoda mazmuniga ko'ra uzluksiz vaqt davomidagi va jarayon vaqtidagi darajalanishni ifodalovchi guruhlariga bo'linadi. Uzluksiz vaqt davomidagi darajalanish chegaralanmagan vaqt oralig'ida ma'noning bosqichma-bosqich kuchayib yoki pasayib borishini ifodalovchi [一...比一...+X], [...越来越+X], [...越发+X] konstruksiyalari vositasida voqelanadi. Bunda [一...比一...+X] – vaqt o'lchovida asta-sekin o'zgarib turadigan doimiy nuqta, [...越来越+X] – vaqt o'lchovida cho'zilgan diagonal chiziq, [...越发+X] – vaqt o'lchovining ikki nuqtasi va bu konstruksiya faqat grammatikaga oid manbalarda bor.

8. Jarayon vaqtidagi darajalanishning ifodalanishi ikki xil: birinchisi darajalardagi o'zaro farqni, uning baland yoki pastligini ifodalovchi guruh bo'lib, bunga 比, 不比, 不如, 没(有) ishtirokidagi konstruksiyalar kiradi; ikkinchisi darajalarning o'zaro teng yoki notengligini ifodalovchi konstruksiyalar guruhi bo'lib, u ham, o'z navbatida, ikkiga bo'linadi:

- darajaning teng yoki notengligini *farqlash* orqali ifodalovchi konstruksiyalar: [跟....(不)一样], [...(和)...完全两样], [...就是不一样];

- darajaning teng yoki notengligini *o'xshatish* orqali ifodalovchi konstruksiyalar: [A 跟 B....相同], [A 跟 B...相似], [A 跟 B....近似], [A 跟 B.... 类似], [A 跟 B.... 差不多], [A(没)有 B (那么/这么)+...].

9. Grammatikaga oid manbalarda qayd etilgan 16 ta konstruksiyadan tashqari xitoy tilida yana 2 ta qiyoslash mazmunli konstruksiya mavjudligi aniqlandi. Bular: [Ega+kesim (越 (是) ...越发...)] va uning sinonim shakli [Ega+kesim+(愈...愈...)] hamda farqlash orqali qiyoslanuvchi [...就是不一样 ], [...(和)...完全两样 ] konstruksiyalaridir.

10. Darajalanish hodisasi belgi, xususiyat, harakat, jarayon va holatni ifodalash zahirida amalga oshishi asoslandi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan 16 ta va yangi aniqlangan 2 ta grammatik konstruksiyalar 279 ta qiyosiy gaplar misolida tahlil qilindi. Bunga ko'ra uzluksiz vaqt davomidagi darajalanishni ifodalovchi 54 ta mantiqiy, 46 ta emotsional, 39 ta miqdoriy konstruksiyalar; jarayon vaqtidagi darajalanishni ifodalovchi 59 ta mantiqiy, 51 ta emotsional, 32 ta miqdoriy konstruksiyalar mavjudligi ilmiy asoslangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019. Fil/Tar.21.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**МАХАМАДТОИРОВА АДИБА БОТИР КИЗИ**

**ГРАДАЦИЯ СРАВНИТЕЛЬНЫХ КОНСТРУКЦИЙ В СОВРЕМЕННОМ  
КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ**

**10.00.05 – Языки и литература народов Азии и Африки**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Ташкент – 2022**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № B2020.2.PhD/Fil1290.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете востоковедения.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета [www.tsuos.uz](http://www.tsuos.uz) и Информационно-образовательном портале [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).

**Научный руководитель:**

**Насирова Саодат Абдуллаевна**  
доктор филологических наук, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Сафаров Шахриёр Сафарович**  
доктор филологических наук, профессор

**Кебайтули Гулибанум**  
доктор философии по филологическим наукам ( PhD)

**Ведущая организация:**

**Узбекский государственный университет мировых языков**

Защита диссертации состоится «\_\_» \_\_\_\_\_ 2022 г. в \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном университете востоковедения по адресу: 100047, г. Ташкент, ул. Шахрисабзская, 16. Тел.: (99871) 233-45-21, факс: (99871) 233-52-24; e-mail: [info@tsuos.uz](mailto:info@tsuos.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета востоковедения (зарегистрирована за № \_\_\_\_). Адрес: 100047, г.Ташкент, ул. Шахрисабзская, 16. Тел.: (99871) 233-45-21).

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2022 года.

(Протокол реестра рассылки № \_\_\_\_ от «\_\_» \_\_\_\_\_ 2022 года.)

**А.М. Маннанов**

Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
филол. наук, профессор

**Р.А. Алимухамедов**

Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
филол. наук, доцент

**Х.З. Алимова**

Председатель Научного семинара при  
Научном совете по присуждению ученых  
степеней, доктор филол. наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировой лингвистике сравнение признано одним из наиболее распространенных логических способов познания внешнего мира, который наблюдается практически во всех сферах человеческой деятельности и имеет большое значение в процессе восприятия мира. Известно, что предметы и события в объективном существовании постоянно меняются, и этот процесс находит свое отражение в языке и мышлении человека. Понятия, образованные на основе объективного предмета и его признаков, лежат в основе образования одного в другие понятия, а явления градации на основе их тождества, различия и сходства.

В мировой лингвистике кроме формальных аспектов языковых единиц внимание исследователей привлекают и их содержательные характеристики, что обосновано сравнительными исследованиями конструкций, выражающих отношения тождества и различия. Как известно, языки мира имеют категорию сравнения, но правила и структура сравнительных конструкций характеризуются специфическими признаками в каждом из языков. Сравнение является универсальным понятием различных наук, таких как математика, логика, психология, философия, языкознание, причем каждая дисциплина, изучающая это явление, акцентирует внимание на характерном для определенной науки аспектах, что доказывает многогранность сравнения. Именно исследование многогранности сравнения является одним из важных вопросов современного языкознания.

В настоящее время динамично развиваются всесторонние отношения Узбекистана и Китая, в частности, в области науки. «Узбекистан рассматривает Китай как страну с многовековой историей и уникальной культурой, обладающую огромным потенциалом, являющуюся одним из лидеров мировой экономики и уверенно продвигающуюся по пути достижения своих целей»<sup>1</sup>. Следует отметить, что язык служит мостом для взаимного экономического развития двух стран и лингвистические исследования должны сыграть свою роль в содействии и реализации таких важных задач, как подготовка квалифицированных специалистов для развития двусторонних и многосторонних политических, экономических и культурных отношений, обеспечение потребностей в кадрах с глубоким аналитическим мышлением, умеющих правильно интерпретировать происходящие в мире процессы, подготовка синхронных переводчиков по восточным языкам, особенно по китайскому языку. Тема данной диссертации связана с решением вышеуказанных задач и, несмотря на то, что до настоящего времени в узбекском китаеведении и проводился ряд исследований китайского языка, но тем не менее, актуальность этого исследования продиктована именно отсутствием фундаментальных исследований относительно вопроса градации в сравнительных конструкциях и изучением их особенностей в монографическом плане. Отсутствие фундаментальных исследований явления градации в китайском языке показало необходимость изучения сравнительных конструкций и градационных отношений в сравнительных моделях, результаты которого будут

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Выступление на встрече с Председателем КНР Си Цзиньпином в ходе его государственного визита в Китайскую Народную Республику 11 мая 2017 года // Узбекистан – Китай: по пути дальнейшего развития стратегического партнерства и дружеских отношений: <http://uza.uz/ru/politics/uzbekistan-kitay-po-puti-dalneyshego-razvitiya-strategichesk-12-05-2017>

способствовать более глубокому пониманию выражения градационных отношений в сравнительных конструкциях китайского языка.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, отраженных в Указе Президента Республики Узбекистана № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Указе № УП-6084 от 20 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», Постановлении № ПП-4680 от 16 апреля 2020 «О мерах по кардинальному совершенствованию системы подготовки кадров и повышению научного потенциала в области востоковедения», Указе № УП-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», Постановлении Президента № ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», а также других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Формирование системы инновационных идей по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-нравственному развитию информационного общества и демократического государства и пути их осуществления».

**Степень изученности проблемы.** Различные аспекты явления сравнения и градации изучались лингвистами всего мира. В частности, в русском языкознании такие лингвисты, как М.И. Черемисина, В.М. Огольцев, В.П. Берков, В. Куперман, К.П. Херberman, И.В. Левит, Г.Й. Дзюбко, А.В. Трегубчак, М.С. Ивашова, Г.Л. Денисова, Л.М. Малых<sup>2</sup>, проделали значительную работу по изучению специфики сопоставительной категории, но тем не менее вопрос о градации в сопоставительных конструкциях ими не анализировался. Также большой вклад в изучение явления градации внесли С.М. Колесникова, Е.И. Шейгал, М.Б. Бондаренко, Б.А. Булгарова, П.П. Березницкая, А.В. Щербаков, Н.В. Рогожина, И.А. Исаева, О.М. Кузнецова<sup>3</sup>. Однако исследования определили

<sup>2</sup> Черемисина М.И. Сложные сравнительные конструкции русского языка: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Новосибирск, 1973. – 382 с.; Огольцев В.М. Устойчивые сравнения в системе русской фразеологии. – Л.: Либроком, 1978. – 159 с.; Берков В.П. Семантика сравнения и типы её выражения / Теория функциональной грамматики: Качественность. – СПб.: Наука, 1996. – 263 с.; Лернер К., Куперман В. Категория «сравнения и оценки» с точки зрения гипотезы о «типах языкового движения» // Вопросы языкознания. №1. – М., 1998. – С. 89-96.; Херberman К.П. Компаративные конструкции в сравнении. К вопросу об отношении грамматики к этимологии и языковой типологии // Вопросы языкознания. №2. – М., 1999. – 207 с.; Левит И.В. Сложные сравнительные синтаксические конструкции как элемент функционально семантического поля сравнения: Дисс. ...канд. филол. наук. – СПб., 2005. – 166 с.; Дзюбко Г.Ю. Формирование образности речи учащихся при изучении сравнения на уроках русского языка: Дисс. ...канд. пед. наук. – Рязань, 2006. – 166 с.; Трегубчак А.В. Семантика сравнения и способы ее выражения: Дисс. ...канд. филол. наук. – Рязань, 2008. – 221 с.; Ивашова М.С. Структурно-семантические особенности сравнительных конструкций во французском и русском языках в их сопоставлении (на материале художественных переводов): Дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2009. – 252 с.; Денисова Г.Л. Когнитивный механизм сравнения в немецком языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Самара, 2009. – 34 с.; Малых Л.М. Статус категории сравнения в современных лингвистических исследованиях (Актуальные вопросы грамматики): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2011. – 36 с.

<sup>3</sup> Колесникова С.М. Градационные отношения в современном русском языке: Дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 1999. – 425 с.; Шейгал Е.И. Градация в лексической семантике. – Куйбышев, 1990. – 196 с.; Бондаренко М.Б. Градуальность как свойство лексики и основание для построения лексической парадигмы: Автореф. дисс. ...канд.

градацию как стилистический инструмент, обеспечивающий постепенное повышение значения и содержания, важности и воздействия предложений в тексте.

